| Organik qishloq xo'jaligiga o'tish bosqichlarining tashkiliy jihatlar va iqtisodiy asoslari .....                                                              | 723 |
| <b>Amirqulov Shuxrat Olimovich</b>                                                                                                                             |     |
| Davlat xaridlari jarayonida e'tiborsiz ijrochilarni imkoniyatini cheklash masalalari .....                                                                     | 727 |
| <b>G'ofurov Temur Baxrom o'g'li</b>                                                                                                                            |     |
| O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion loyihalarni faol tashkil etish istiqbollari .....                                                                      | 730 |
| <b>Utkurov Kozimjon Dilmurod o'g'li</b>                                                                                                                        |     |
| Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda transport tadbirkorligi faoliyatini rivojlanish imkoniyatlari .....                                                            | 733 |
| <b>M. Masharipova, I. Ruzmetova, D. Kuramboyeva</b>                                                                                                            |     |
| Sug'urta faoliyatini takomillashtirishda anderrayting xizmatining o'rni .....                                                                                  | 737 |
| <b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b>                                                                                                                         |     |
| O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari .....                                                                    | 741 |
| <b>Qarshiyev Keldiyor Eshpulatovich</b>                                                                                                                        |     |
| Kambag'allikni qisqartirishda aholini tadbirkorlikka yo'naltirish.....                                                                                         | 745 |
| <b>Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich</b>                                                                                                                        |     |
| Yoqilg'i-energetika korxonalarining moliyaviy barqarorligining ilmiy nazariy asoslari.....                                                                     | 749 |
| <b>Xusanov Qaxramon Nishonovich</b>                                                                                                                            |     |
| Оценка результатов реформы бухгалтерского учета в Республике .....                                                                                             | 753 |
| <b>Киличева Фарида Бешимовна, Ирмухамедова Муслима Дилшодовна</b>                                                                                              |     |
| Эффективность программ соответствия в различных компаниях .....                                                                                                | 757 |
| <b>Ахмедов Бехзод Ахмедович</b>                                                                                                                                |     |
| Элементы системы внутреннего контроля в выбранном финансовом институте .....                                                                                   | 762 |
| <b>Хасанов Кахрамон Ахмаджанович</b>                                                                                                                           |     |
| Authentic Leadership Unleashed: A Comparative Analysis of Leadership Styles.....                                                                               | 767 |
| <b>Esanova Shohida Utkirovna</b>                                                                                                                               |     |
| Investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi moliyaviy risklarni boshqarishning ilg'or xorij tajribalari .....                                                | 774 |
| <b>Madiyarov Sanjar Gulyamovich</b>                                                                                                                            |     |
| Paxta-to'qimachilik klasterlarida xarajatlar hisobining uslubiy masalalari takomillashtirish .....                                                             | 781 |
| <b>Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich, Umaraliyev Isomidin Ismonjon o'g'li</b>                                                                              |     |
| Sug'urta kompaniyalarida asosiy samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari ahamiyati va tansifi.....                                                               | 788 |
| <b>Sharipova Durdona</b>                                                                                                                                       |     |
| Globalashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqarish.....                                                                 | 793 |
| <b>Mirzayev Musurmon Umidullayevich</b>                                                                                                                        |     |
| Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari .....                                                                                                                    | 797 |
| <b>Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich</b>                                                                                                                        |     |
| Oziq-ovqat mahsulotlari bozorining rivojlanish metodologiyasi.....                                                                                             | 801 |
| <b>Meyliyeva Dilnoza Boboniyoz qizi</b>                                                                                                                        |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida budjet mablag'laridan samarali va aniq foydalanishni ta'minlashga<br>qaratilgan eng muhim qaror va u haqida ayrim mulohazalar ..... | 806 |
| <b>Xayriddinov Shuxrat Botirovich</b>                                                                                                                          |     |
| Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish.....                                                                                               | 809 |
| <b>Ravshanov To'yli Gulmurodovich</b>                                                                                                                          |     |
| Investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.....                                                                                                       | 814 |
| <b>Rizayeva Kumush Mexriddin qizi</b>                                                                                                                          |     |
| Использование маркетинговых исследований в маркетинговой деятельности предприятий.....                                                                         | 818 |
| <b>Маматкулова Шоира Джалоловна</b>                                                                                                                            |     |
| Расширение возможностей зелёной энергетики и её роль в устойчивом развитии<br>предприятий энергетической отрасли Узбекистана .....                             | 824 |
| <b>Аллаева Гульчехра Жалгасовна, Хакимджанова Сурайё Хабибуллаевна</b>                                                                                         |     |
| Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini boshqarish tamoyillari .....                                                                                    | 829 |
| <b>Shermuxamedov Akmal Komiljonovich</b>                                                                                                                       |     |
| Turizm transport infratuzilmasini baholash imkoniyatlari va tashkiliy-iqtisodiy<br>mexanizmlarini takomillashtirish muammolari .....                           | 835 |
| <b>Agzamov Shaxboz Akmalovich</b>                                                                                                                              |     |





|                                                                                                                                                                            |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida biznes ekotizimini tashkil etish yo'llari.....                                                                                   | 839 |
| <b>Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li</b>                                                                                                                                   |     |
| O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida axborot-resurs markazi faoliyatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan tizimli islohotlar tahlili.....                        | 844 |
| <b>Qurbanova Muazzam Fazliddinova</b>                                                                                                                                      |     |
| Развитие транспортной сферы в условиях цифровизации экономики.....                                                                                                         | 847 |
| <b>Акбарова Лайло Упашевна</b>                                                                                                                                             |     |
| O'zbekiston Respublikasining 2024-yilgi soliq qonunchilik hujjatlariga kiritilgan asosiy o'zgarish va soliq imtiyozlari berish tartibini takomillashtirish masalalari..... | 853 |
| <b>Normurzaev Umid Xolmurzaevich</b>                                                                                                                                       |     |
| O'zbekistonda elektron tijoratni yuritish va tartibga solishning me'yoriy-huquqiy asoslari.....                                                                            | 860 |
| <b>Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich</b>                                                                                                                                      |     |
| Korxonalarning innovatsion faoliyatini moliyalashtirish yo'nalishlari .....                                                                                                | 866 |
| <b>Shayakubov Shaxzod Shakabilovich</b>                                                                                                                                    |     |
| Yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborilgan yosh olimlarning tahlili....                                                         | 871 |
| <b>Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich</b>                                                                                                                                 |     |
| Global iqlim o'zgarishining iqtisodiy ta'sirini baholash modellari.....                                                                                                    | 875 |
| <b>Elov Ashrafjon Asqarjon o'g'li</b>                                                                                                                                      |     |
| Влияние прямых иностранных инвестиций (ПИИ) на экономику Узбекистана.....                                                                                                  | 880 |
| <b>Юлдашев Нодирбек Сайдибурханович</b>                                                                                                                                    |     |
| Budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va nazoratini takomillashtirish.....                                                                                                  | 885 |
| <b>Ostonokulov Azamat Abduraimovich, Alimardonov Asrorjon Alimardonovich</b>                                                                                               |     |
| Iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy o'zgarishlarini iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholashning nazariy asoslari .....                                                       | 893 |
| <b>Kaxorova Anora Nusratovna</b>                                                                                                                                           |     |
| Оценка результатов реформы бухгалтерского учета в Республике Узбекистан.....                                                                                               | 897 |
| <b>Киличева Фарида Бешимовна, Ирмухамедова Муслима Дилшодовна</b>                                                                                                          |     |
| Optimizing Lumbar Spinal Fusion with Cellular Technologies.....                                                                                                            | 902 |
| <b>Aripkhodjaev Fuzuliddin Ziyaviddinovich</b>                                                                                                                             |     |
| Qo'shilgan qiymat solig'ini budjetdan qaytarish tartibini takomillashtirish .....                                                                                          | 909 |
| <b>Qurbanov Muxiddin Abdullayevich</b>                                                                                                                                     |     |
| Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:                                                                                                           |     |
| Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili.....                                                                                                                      | 913 |
| <b>Sultonboyeva Munira Baxodirovna</b>                                                                                                                                     |     |
| Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari.....                                                                                                                       | 919 |
| <b>Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich</b>                                                                                                                                    |     |
| Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari.....                                                                                      | 925 |
| <b>Tursunova Shaxnoza Farxod qizi</b>                                                                                                                                      |     |
| Цифровизация в дошкольном образовании: механизмы управления для повышения качества.....                                                                                    | 929 |
| <b>Хайдаров Рустамбек Юлчибаевич</b>                                                                                                                                       |     |
| Moliyaviy menejment tizimini rivojlantirishda raqamli marketingdan foydalanishning afzalliklari.....                                                                       | 935 |
| <b>Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich</b>                                                                                                                                     |     |
| Export of Agricultural Products of Uzbekistan: New Opportunities and Development Problems.....                                                                             | 939 |
| <b>Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi</b>                                                                                                                                    |     |
| Tijorat banklari aksiyalarini fond bozorida harakatlanishini iqtisodiy tahlili .....                                                                                       | 943 |
| <b>Yuldoshova Manzura Ollashkurovna</b>                                                                                                                                    |     |
| Ilmiy-tadqiqot va innovatsion ishlar samaradorligini baholash mezonlari (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti misolida).....                                           | 950 |
| <b>Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li</b>                                                                                                                                 |     |
| Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq joriy aktivlarni hisobga olishni takomillashtirish .....                                                                  | 957 |
| <b>Mavlyanova Dilobar Maxkamovna</b>                                                                                                                                       |     |



# ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION ISHLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI (TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI MISOLIDA)

**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari samaradorligi yildan-yilga ortib bormoqda. Ushbu ko'rsatkichlar universitetning xalqaro reytinglari, ilmiy darajasi va talabalar salohiyatida ham o'z aksini topmoqda. 2023-yilda TDIU QS reytingi bo'yicha 5 yulduz olgan O'zbekistonning yagona universiteti hisoblanadi. Lekin, ushbu jarayonni yanada optimizatsiyalash uchun xorijning yetakchi universitetlarining tajribasini o'rganish kerak hisoblanadi. Ushbu maqolada universitetda olib borilgan ilmiy va innovatsion faoliyat, uning samaradorligi va xorij tajribasidan misollar keltirilgan. Shuningdek, maqolada ilmiy-tadqiqotning universitet iqtisodiy holatiga ta'siri nazariy jihatdan o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** TDIU, ilmiy-tadqiqot, innovatsiya, samaradorlik, loyiha, daromad, xalqaro reyting, xorijiy tajriba.

**Abstract:** The efficiency of research and innovation work at the Tashkent State University of Economics is increasing every year. These indicators are also reflected in the university's international rankings, academic level and student potential. In 2023, TSUE became the first and only university in Uzbekistan to receive 5 stars according to the QS rating. However, to further optimize this process, it is necessary to study the experience of leading foreign universities. This article presents examples of scientific and innovative activities carried out at the university, its effectiveness and foreign experience. The article also theoretically examines the impact of scientific research on the economics of a university.

**Key words:** TSUE, research, innovation, efficiency, project, income, international rating, foreign experience.

**Аннотация:** Эффективность научно-исследовательской и инновационной работы в Ташкентском государственном экономическом университете возрастает с каждым годом. Эти показатели также отражаются на международных рейтингах университета, академическом уровне и студенческом потенциале. В 2023 году ТГЭУ стал первым и единственным вузом Узбекистана, получившим 5 звезд по рейтингу QS. Однако для дальнейшей оптимизации этого процесса необходимо изучить опыт ведущих зарубежных университетов. В данной статье представлены примеры научной и инновационной деятельности, осуществляемой в университете, ее эффективность и зарубежный опыт. В статье также теоретически исследовано влияние научных исследований на экономику университета.

**Ключевые слова:** ТГЭУ, исследования, инновации, эффективность, проект, доход, международный рейтинг, зарубежный опыт.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori, 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4958-sonli farmoni, 2017-yil 27-iyundagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli qarori, 2018 yil 7-maydagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3698-sonli qarori, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha



chora-tadbirlar to'g'risi"gi PQ-3775-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli qarori, 2017- yil 17-oktyabrdagi "Doktorantlarning ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishlari uchun moddiy shart-sharoitlar yaratish va mehnat faoliyatini yanada rag'batlantirish to'g'risida"gi 839-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligining ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan buyruqlari asosida olib borildi.

Universitetda 6 ta fakultet, shuningdek 9 ta xalqaro qo'shma dasturlarini o'zida mujassamlashtirgan Xalqaro qo'shma dasturlarini muvofiqlashtirish bo'limi, 33 ta kafedralar faoliyat ko'rsatmoqda. Bakalavriatda 36 ta talim yo'nalishlari bo'yicha jami 18555 nafar, 37 ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha 757 nafar talabalar tahsil olmoqda. Talabalarga bilim va amaliy ko'nikmalar berish, dars mashg'ulotlarini olib borish, talabalarining mustaqil ta'lim olishlarini ta'minlash uchun universitetda jami asosiy shtatda 699 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat olib borishmoqda. Ularning 106 nafari fan doktori, professorlar, 278 nafari fan nomzodi, dotsentlardir. Universitetning ilmiy salohiyati 55,45 foizni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yildagi PQ-3151-sonli qaroriga muvofiq universitet tomonidan fan-ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash maqsadida innovatsion-korporativ hamkorlikni samarali tashkil etish borasida respublika darajasidagi vazirlik, qo'mita, tashkilot va korxonalar bilan hamkorlik shartnomalari imzolangan hamda 156 ta tarkibiy tuzilmalari va tashkilotlari bilan innovatsion hamkorlik aloqalari o'rnatilgan. Yirik hamkor tashkilotlarda 77 nafar bosh koordinatorlar hamda hamkorlar tarkibiy tuzilmalar bilan ishlovchi 80 nafar koordinatorlar tayinlangan bo'lib, ularning vazifalari aniq belgilab berilgan.

Universitetda doktorantlar (DSc) va tayanch doktorantlar (PhD) faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4958-sonli farmoni, 2017-yil 27-iyundagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli qarori, 2017-yil 17-oktyabrdagi "Doktorantlarning ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishlari uchun moddiy shart-sharoitlar yaratish va mehnat faoliyatini yanada rag'batlantirish to'g'risida"gi 839-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2017-yil 14-sentyabrdagi "Vazirlik tasarrufidagi oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 660-sonli buyrug'i hamda O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2019-yil 26 iyundagi "Doktorantlar maktabi to'g'risidagi nizomi", "Talabgorlarning yakka tartibdagi rejasini bajarilishini har chorakda monitoring qilish tartibi to'g'risidagi nizomi" to'g'risidagi 572-sonli buyrug'i asosida faoliyat yuritiladi.

Universitetda tayanch doktorantura (PhD)da 136 nafar va doktoranturada (DSc) 10 nafar, 465 nafar mustaqil izlanuvchilar (PhD) hamda 69 nafar mustaqil izlanuvchilar (DSc) faoliyat yuritmoqda.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni tashkil etishning asosi sifatida O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlar, xususan Prezidentning farmon va qarorlari, nizom va buyruqlar asosida amalga oshirildi. Shuningdek, huquqiy va tashkiliy asos sifatida universitetning yo'l xaritasidan foydalanildi.

Amalga oshirilgan ishlarning samaradorlik darajasini baholash uchun ilmiy tadqiqotlarini baholashning xorijiy maqolalardagi fikrlar tahlil etildi. Xususan, italiyalik tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqotni tashkil etish samaradorligi va ushbu samaradorlikni baholash haqidagi fikrlari o'rganib chiqildi <sup>[1]</sup>. Shuningdek, Athanasios Valavanidis muallifligidagi maqolaga asosan, makroiqtisodiy darajada universitetlardagi ilmiy-tadqiqotlarning o'rni va innovatsiyalarning turli rivojlangan davlat universitetlaridagi holati haqida tahlil etildi <sup>[2]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarning universitet faoliyatidagi o'rnini aniqlash, amalga oshirilgan ishlar sarhisobini tahlil etish uchun analiz va sintez usullaridan foydalanildi. Xorij va milliy tajribalardagi farqlarni tahlil etishda kuzatuv va taqqoslash metodlari ishlatildi. Jarayonlarni aniqroq ko'rsatish uchun grafik, jadval va matematik formulalardan foydalanilgan. Muallif tomonidan ilmiy-tadqiqotning universitet iqtisodiy holatiga ta'sirini nazariy o'rganish uchun iqtisodiy o'lchov va mantiqiy yondashuv usullari qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Universitetdagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini tahlil etishda, dastlab qo'yilgan maqsadlar o'rganildi. Ushbu maqsadlardagi yo'nalishlar asosida maqolada tarkibi belgilandi.



Universitetdagi ilmiy tadqiqot faoliyatining ustuvor yo'nalishlari:

- ilmiy fundamental tadqiqotlar;
- ilmiy-amaliy tadqiqotlar;
- innovatsion tadqiqotlar;
- yosh olimlarning ilmiy-amaliy tadqiqotlari;
- universitetda ustuvor yo'nalishni o'z ichiga olgan 13 ta keng qamrovli mavzu;
- xo'jalik shartnomasi asosida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, davra suhbatlari va seminarlar;
- ilmiy tadqiqot mahsulotlarini nashr qilish (monografiya, risola, ilmiy maqola, tezislar);
- olingan ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish.

Tahlilning keyingi bosqichi sifatida universitetlardagi ilmiy salohiyat ixtisoslik, olimlarning ilmiy salohiyati bo'yicha miqdoriy tahlil amalga oshirildi. Universitetda asosiy shtatda jami 605 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat olib borishmoqda. Ularning 74 nafari fan doktori, professorlar, 249 nafari fan nomzodi, dotsentlardir. Universitetning ilmiy salohiyati 55,45 foizni tashkil etadi.

1-jadval: Universitet ilmiy salohiyatining ixtisosliklar kesimidagi kontingenti

| Ixtisoslik nomi                      | Jami       | Shulardan   |                     |
|--------------------------------------|------------|-------------|---------------------|
|                                      |            | Fan doktori | Fan nomzodi/dotsent |
| 01.00.00 – Fizika-matematika fanlari | 6          | 1           | 5                   |
| 05.00.00 – Texnika fanlari           | 8          | 1           | 7                   |
| 07.00.00 – Tarix fanlari             | 1          |             | 1                   |
| 08.00.00 – Iqtisodiyot fanlari       | 275        | 64          | 211                 |
| 09.00.00 – Falsafa fanlari           | 14         | 4           | 10                  |
| 10.00.00 – Filologiya fanlari        | 4          |             | 4                   |
| 13.00.00 – Pedagogika fanlari        | 10         | 3           | 7                   |
| 19.00.00 – Psixologiya fanlari       | 2          |             | 2                   |
| 23.00.00 – Siyosiy fanlar            | 3          | 1           | 2                   |
| <b>Jami</b>                          | <b>323</b> | <b>74</b>   | <b>249</b>          |

Universitet faoliyatidagi professor-o'qituvchilarning ilmiy potensialni aniqlash va ular bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlikni mukammallashtirish uchun ularni yosh bo'yicha guruhlandi.

2-jadval: Universitet ilmiy salohiyatli professor-o'qituvchilarining yosh kesimidagi kontingenti

| Yosh turlari      | Fan doktori |            | Fan nomzodi |            | PhD        |            |
|-------------------|-------------|------------|-------------|------------|------------|------------|
|                   | Jami        | %          | Jami        | %          | Jami       | %          |
| 30 yoshgacha      | 0           | 0          | 0           | 0          | 18         | 14         |
| 31 – 40 yosh      | 6           | 8          | 14          | 12         | 77         | 59         |
| 41 – 50 yosh      | 23          | 31         | 37          | 31         | 32         | 24         |
| 51 – 60 yosh      | 19          | 26         | 42          | 36         | 4          | 3          |
| 60 yoshdan yuqori | 26          | 35         | 25          | 21         | 0          | 0          |
| <b>jami</b>       | <b>74</b>   | <b>100</b> | <b>118</b>  | <b>100</b> | <b>131</b> | <b>100</b> |

Hisobot davrida universitetda universitetda IFODD doirasida jami 13 ta loyiha, 3 ta amaliy va 1 ta innovatsion, 4 ta fundamental, 3 ta maqsadli-amaliy loyiha, 2 ta xalqaro loyihalar ustida ish olib borilmoqda. 2023 yilda universitetda jami 13 ta loyiha doirasida ilmiy faoliyatga oid davlat dasturi bo'yicha jami 9.2 mlrd. so'mlik loyihalar ustida ish olib borilmoqda. Jumladan, 3ta 1.6 mlrd. so'mlik amaliy, 1 ta 0.761 mlrd. so'mlik innovatsion loyiha, 4 ta 3.05 mlrd. so'mlik fundamental, 3 ta 2.26 mlrd. so'mlik maqsadli-amaliy hamda 2 ta 57 ming dollar va 60 ming yevrolik xalqaro loyihalar bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularning yillik o'rtacha qiymati 10 mlrd. so'mni tashkil etadi.





Universitetning kelgusi faoliyatini rejalashtirish, uning joriy holatini aniqlash maqsadida universitetning hisobot davrida erishgan yutuqlari tahlil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasining "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 215-bandi ijrosini ta'minlash hamda mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarini xalqaro e'tirof etilgan reyting agentliklari reytingining birinchi 1000 taligiga kiritish bo'yicha ishlar tizimli ravishda tashkil qilindi.

1. THE (Times Higher Education) xalqaro reytingida erishilgan natijalar:

- THE World University Rankings 2024 reytingida TDIU "Reporter" sifatida qayd etildi va pozitsiyasini mustahkamlab bormoqda. 2023-yil 30-oktyabrda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi tomonidan THE xalqaro reyting agentligi mas'ul xodimlari (Phil Bathy, Lachin Italmazova, Elizabeth Shepherd) o'tkazilgan seminardagi simulyatsiya bo'yicha 2027-yilga qadar THE WUR reytingi TOP 1000 talikka kiruvchi 7 ta Respublika universitetlar qatorida qayd etildi.
- THE World University Rankings 2023 Asia reytingida "Reporter" sifatida qayd etildi
- THE Impact Rankings 2023 reytingida 1001+ o'rinni qayd etdi.

2. QS (Quaquarelli Symonds Times Higher Education) xalqaro reytingida erishilgan natijalar:

- QS xalqaro reyting agentligining Oliy ta'lim sohasidagi QS yulduzlari (QS stars) reytingida 5 yulduz "A'lo" nominatsiyasiga sazovor bo'ldi. "QS Higher Education Summit: Asia Pacific – 2023" sammitida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga "5 Stars" sertifikati topshirildi. Ushbu reyting bo'yicha Markaziy Osiyo universitetlari orasida ikkinchi va Respublika OTMLari orasida birinchi 5 yulduzga ega universitet sifatida qayd etildi.
- TDIUga "QS Asia University Rankings-2024" sertifikatlari topshirildi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Osiyodagi eng yaxshi universitetlar 400 taligiga kiritildi.
- "QS Asia University Rankings-2024" reytingi bo'yicha Markaziy Osiyodagi eng kuchli 23 talikdan joy oldi. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari orasida 3 o'rin qayd etildi.
- QS xalqaro reyting agentligi bilan faol tizimli ish olib borayotgan universitet sifatida baholandi va QS "Best engagement recognitions" nominatsiyasiga sazovor bo'lgan.

3. Webometrics xalqaro reytingi bo'yicha dunyo reytingida 4204 o'ringa (Jami 11997 nafar universitet qatnashadi) ko'tarildi. Respublika OTMLari orasida 3-o'rin qayd etildi.

4. Greenmetrics xalqaro reytingida 2023-yil 5-dekabr kuni BAAning Dubay shahridagi yillik sammitda TDIU 2022-yilga nisbatan 69 pog'onaga ko'tarilib jahonning eng yaxshi universitetlari qatorida TOP 296 o'rinni qayd etdi.

Umumiy natijalar sifatida TDIU xalqaro reyting agentliklarida yuqori reytinglarni qayd etib, Respublika universitetlari qatorida birinchi eng ilg'or 3 talikni qayd etdi.

Maqsadlardagi keyingi yo'nalish bo'yicha universitetdagi "Yosh olimlar kengashi", "Doktorantlar maktabi" faoliyati o'rganildi. 2021-yilda iqtidorli yoshlarni ilm-fanga keng jalb etilishini rag'batlantirish maqsadida kafedralarda akademik Abduraxmonov Q.X. rahbarligida "Mehnat iqtisodiyoti" va akademik Gulyamov S.S. rahbarligida "Raqamli iqtisodiyot-elektron tijorat" ilmiy maktablari samarali faoliyat yuritdi. "Mehnat iqtisodiyoti" ilmiy maktabi kafedra innovatsion korporativ hamkorlik doirasida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Xalqaro mehnat munosabatlari, Rossiya mehnat va ijtimoiy himoya vazirligi bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi inson kapitalini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqarishda ishtirok etmoqda. Shuningdek, universitetda 54 ilmiy to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularda talabalar bilan iqtisodiy taraqqiyotning zamonaviy yo'nalishlari mavzularida muhokamalar o'tkazilmoqda. 2023-yilda akademiklarimiz rahbarligida 2 nafar tayanch doktorant va 1 nafar mustaqil izlanuvchi (PhD) dissertatsiya ishini yakunladi. Akademik Gulyamov Saidaxror rahbarligida 2 nafar mustaqil izlanuvchi (PhD) va 2 nafar tayanch doktorant ilmiy izlanish olib bormoqda.

Universitet professor-o'qituvchilari tomonidan 2022-yilda 102 ta darslik, 136 ta o'quv qo'llanma, 59 ta monografiya (2021-yilda 41 ta), 2 ta risola, 1782 ta ilmiy maqollar (2021-yilda 1544 ta), shu jumladan "Scopus" va "WoS" bazasiga kiritilgan jurnallarda 455 ta, prognoz bilan 565 ta maqolalar (2023-yilda 110 ta), xalqaro e'tirof etilgan bazalarga kiritilgan nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda 737 ta ilmiy maqola, OAK ro'yxatiga kiritilgan respublika ilmiy jurnallarda 775 ta ilmiy maqola, 1997 (2021-yilda 2142) ta xalqaro va respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-anjumanlar to'plamida, shulardan 1236 tezislar. shulardan, xalqaro ilmiy anjumanlarda 761 ta tezis, respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy jurnallarida 375 ta tezislar nashr qilindi.




2023-yilda Scopus” bazasidagi jurnallarda nashr qilingan maqolalarning 43 foizi I-kvartildagi (Q1), 12 foizi II –kvartildagi (Q2), 34 foizi III –kvartildagi (Q3) va 11 foizi IV kvartidagi (Q4)jurnallarda nashr qilingan.

2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida ko‘zda tutilgan vazifalar va universitet rektorining 2023-yil 03-fevraldagi “Ilmiy tadqiqot va innovatsion ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi 34-sonli buyrug‘i bilan universitet professor-o‘qituvchilari tomonidan “Scopus” bazasidagi I-II va III kvartillardagi, “WoS” bazasidagi I-II va III kvartillardagi jurnallarda nashr qilingan ilmiy maqollarga hamda “Scopus” va “WoS” bazasidagi kitoblarda nashr etilgan kitob boblari uchun 2021-yilda 107 mln. so‘mdan ziyod, 2022-yilda 1 054 mlrd. so‘mdan ziyod va 2023-yilda 1 622 mlrd. so‘mdan ziyod mukofot pullari mualliflarga to‘lab berildi. 2022-yilda universitetda jami 18 ta ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi. Shundan, 1 ta forum, 3 ta “Scopus”, 1 ta “Springer”, 11 ta xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya, 4 ta respublika miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazildi.

“Olingan ilmiy tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish” ustuvor vazifasi bo‘yicha iqtisodiyotning tegishli sohalariga oid korxona va tashkilotlar bilan hamkorlikda bajarilayotgan xo‘jalik shartnomalari faoliyati tahlil qilindi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida, joriy 2023-yilda universitetda iqtisodiyotning tegishli sohalariga oid korxona va tashkilotlar bilan hamkorlikda bajarilayotgan shartnomalari bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib, natijada 2023-yilda universitetda xo‘jalik shartnomalari bo‘yicha jami yillik reja 6 mlrd. so‘mni tashkil qilib, hozirgi kunga qadar mavjud 32 ta kafedralar, jami 296ta xo‘jalik shartnomalari bo‘yicha 6.7 mlrd. so‘mlik pul mablag‘lari universitet hisob raqamiga kelib tushib, 25.12.2023-yil holatiga rejaga nisbatan 109 % ga bajarilgan bu o‘tgan yilga nisbatan qariyb 3,5 barobarga oshganini ko‘rsatdi.

Universitetda fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi innovatsion korporativ hamkorlikni rivojlantirish natijasida, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalar bo‘yicha yetakchi tashkilotlar, jumladan, vazirliklar, qo‘mitalar, aksiyadorlik kompaniyalari, tijorat banklari va boshqa turdagi korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi, shu jumladan hududiy miqyosdagi mavjud muammolarni innovatsion yechimlariga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish bo‘yicha xo‘jalik hamda pullik xizmat shartnomalar bajarildi. Shuningdek universitetning 230 nafar professor-o‘qituvchisidan iborat ishchi guruh Toshkent shahar, viloyatlar va tumanlarida o‘z mutaxassisliklari mavzusida ilmiy seminar-treninglar tashkil etilib, 300 dan ortiq korxona va tashkilotlar bilan shartnomalar imzolandi. Jumladan, universitet bilan mamlakatimizdagi iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi yirik korxonalar, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlarining yagona ochiq portali, UZBEKNEFTGAZ AJ, “UZBAT A.O.” AJ QQ, “UZBEK LEASING INTERNATIONAL” AJ, “ADAM AKADEMY” NTM, Winrock International Vinrok xalqaro qishloq xo‘jaligini rivojlantirish institutining O‘zbekistondagi filiali, “YANGI ASR UNIVERSITETI” NTM, “SEMURG SUG‘URTA” AJ, “CINOBOD CAR MOTORS” MCHJ, “GOLDEN EAST TRAVEL” MCHJ, “CYBORGPC” MCHJ, “KIA-AMG TRANS” MCHJ, “KAFIL SUG‘URTA” AJ, “O‘zavtosanoat” AJ, “GIZ” Germaniya hamkorligi tashkiloti, “O‘ZSUVTAMINOT” AJ, “NEW SMART TECHNOLOGY” MCHJ bilan xo‘jalik shartnomalar bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borildi.

Ilmiy-tadqiqot loyihalari universitetlarning nafaqat bilvosita iqtisodiy holatiga, balki bevosita OTM byudjetini shakllantirishda o‘z o‘rniga ega. Tailandlik olim Nyugen Danh Nam tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, 23,26 foiz talabalar ilmiy tadqiqotlarga qiziqishi, 36,36 foiz talabalar esa ilmiy tadqiqotlarning talabalarning kelgusi faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishiga ishonishadi <sup>[3]</sup>. Agar talabalarning qiziqishi va ularning grantlarni yutishi orasida to‘g‘ri aloqa mavjud deb olsak, quyidagi grafik va formula yuzaga keladi:



1-rasm: Ilmiy tadqiqotlarning universitet iqtisodiy holatiga ta’siri. Muallif tomonidan tuzildi.



$$D_{abt} + D_g - X_t \rightarrow \max$$

Bu yerda,  $D_{abt}$  – universitetning ilmiy va innovatsion faoliyati uchun TDIUga hujjat topshirgan abituriyentlarning kontrakt-to'lov summasi,  $D_g$  – talabalar tomonidan milliy va xalqaro darajada erishilgan grantlar,  $X_t$  – ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar uchun sarflangan qo'shimcha pullar.

Ushbu ko'rsatkich odatda, manfiy qiymatga ega bo'ladi. Lekin, qiymat musbat bo'lsa, bu universitetdagi ilmiy-tadqiqot ishlarining juda yaxshi yo'lga qo'yilganligi, uning milliy va xalqaro darajada mashhurlik darajasi yuqoriligidan dalolat beradi.

### Xorij tajribasi

Universitetdagi ilmiy va innovatsion faoliyatni yanada takomillashtirish uchun chet elning ilg'or universitetlarining tajribasidan foydalanish kerak hisoblanadi. Rossiyaning har sohada yetakchi universiteti hisoblanuvchi Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida "Ilmiy siyosatni boshqarish" bo'limining quyidagi o'ziga xos vazifalarga ega:

- Ichki va tashqi tanlovlar uchun ilmiy ekspertiza guruhini tuzish;
- fanlararo ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, fanlararo ilmiy loyihalarni konkursli qo'llab-quvvatlashni tashkil etish;
- tahririyat, nashriyot va matbaa faoliyatini tashkil etish va nazorat qilish, Moskva davlat universitetining yagona nashriyot-matbaa majmuasini yaratish.

Rossiyaning iqtisodiyot tadqiqotlar bo'yicha milliy tadqiqot universiteti hisoblanuvchi Oliy iqtisodiyot maktabi (Высшая школа экономики) bo'yicha esa quyidagi maqsadlar belgilangan:

- "Salohiyatli ekspertlar" yo'nalishi bo'yicha kadrlar rezervini tashkil etish;
- Xalqaro tashkilotlar, jumladan Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan loyihalar hamkorligiga erishish, ularning monitoringini olib borish.

Bundan tashqari, Dunyoning Top-3 universitetlarining doimiy a'zosi hisoblanuvchi Garvard universitetining ilmiy faoliyati tahlil etildi. 2020-yildagi ma'lumotlarga ko'ra, Garvard universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari uchun jami 1.24 mlrd dollar sarflagan. Bu 2006-yildagi 507 million dollarga nisbatan 2.44 barobarga ko'proqdir. Garvard universitetda iqtisodiy munosabatlarni tahlil etuvchi "Growth Lab" ilmiy laboratoriyasi mavjud bo'lib, u yerda iqtisodiy farovonlik va inklyuziv o'sish masalalari bo'yicha siyosatshunoslar bilan hamkorlik qilinadi.

### XULOSA

Yuqorida erishilgan yutuqlar va o'zgarishlardan xulosa chiqargan holda quyidagi takliflar beriladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3698-son qarorida "Innovatsion fond oliy ta'lim muassasalarining ish haqi, stipendiya to'lash, shuningdek, boshqa joriy xarajatlari qoplangandan keyin to'lov-kontrakt mablag'larining 5 %dan kam bo'lmagan miqdorini yo'naltirish hisobiga amalga oshirilishi" belgilangan. Ushbu manbadan Innovatsion fondga mablag'larning to'liq yo'naltirilishini ta'minlash.
2. Universitetda ta'lim xizmatlari eksportini oshirish uchun xorijiy talabalar va doktorantlarning qabul qilish qamrovini kengaytirish.
3. Makroiqtisodiy darajada monetar va fiskal siyosatining bevosita ishtirokchilari bilan hamkorlik yo'lga qo'yish.
4. Universitet olimlarning mutaxassisligi bo'yicha Nobel laureatlari bilan ilmiy hamkorlikni kengaytirish.
5. Ilmiy-innovatsion faoliyatning universitet daromadlariga ta'sirini hisoblovchi usullarni yaratish
6. Hamkorlik qilish imkoniyati nisbatan yuqori bo'lgan yetakchi universitetlar bilan ilmiy-innovatsion faoliyatda o'zaro tajriba almashish
7. Universitet moddiy-texnika bazani hamda fan doktori ilmiy darajaga ega olimlar salohiyatini inobatga olgan holda 2023-2024-yilda universitet ilmiy salohiyatni 60 foizga ko'tarish. Ushbu maqsadda tayanch doktoranturaga universitet hisobidan o'qitishni ko'paytirish.
8. Universitetda fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda, lekin innovatsion grantlar mavjud emas. Shuning uchun innovatsion granlar tanlovida universitet professor-o'qituvchilari hamda ilmiy izlanuvchilarining ishtirokini faollashtirish.



9. Iqtidorli talabalar, izlanuvchilar va professor-o'qituvchilarga Scopus/Web of Science bazalarda mavjud bo'lgan ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish bo'yicha kurslar tashkil etish, ekonometrika, akademik ingliz tili, ilmiy-tadqiqotlar metodologiyasi fanlarini chuqurroq o'rgatish, Scopus, ScienceDirect va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridagi ilmiy maqolalar sonini 2024 yilda 350 taga yetkazish;
10. Samarali talant menejment va boshqaruv menejmentga asoslangan holda iqtidorlarni topish va insors (insource) tizimini yo'lga qo'yish, iqtidorli talabalarni kelgusida universitetning asosiy shtatdagi professor-o'qituvchilar safiga yo'naltirish maqsadida ularni akademik halollik va yaratuvchanlikka rag'batlantirib borish mexanizmlarini ishlab chiqish.
11. Xo'jalik va pulli xizmatlar ko'lamini kengaytirish (asosiy shtatdagi professor-o'qituvchi jon boshiga yiliga 10,0 mln), universitet tarkibida texnopark tashkil etish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hamda korxona, tashkilotlarni tadqiq qilish va innovatsion rivojlanishi bo'yicha takliflarni shakllantirish.
12. Startap loyihalarini ishlab chiqish, yangi mahsulotlarni yaratish, tijoratlashtirish orqali universitetda ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish orqali "spin-off" yoki "spin-out" korxonalarini ko'paytirish, forsayt markazlarini tashkil etish.
13. Xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Chiesa, Vittorio & Frattini, Federico & Lazzarotti, Valentina & Manzini, Raffaella. (2009). Performance measurement of research and development activities. European Journal of Innovation Management, vol 12, no 1, 2009. – pp. 31–33.
2. Valavanidis, Athanasios & Vlachogianni, Thomais. Research and Development. The Role of Universities for the Knowledge-based Society and Technological Innovations. Expenditure in Scientific Research and Applications as Crucial Factors for Economic Growth and the New Technological Frontiers, 2016. – pp. 6–32.
3. Oanh, Kieu & Nam, Nguyễn. PROMOTING STUDENTS' INTEREST IN SCIENTIFIC RESEARCH ACTIVITIES AT UNIVERSITIES OF EDUCATION. Journal of Science, Educational Science, vol. 61, 2016. – pp. 76–79.

**Internet saytlari**

4. Lex.uz
5. Tsue.uz
6. Msu.ru
7. Hse.ru
8. Harvard.edu
9. Statista.com

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.